

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatimizda 4 945 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 210 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,5 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 760 tasi (15,4 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 361 tasi (7,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 461 tasi (9,3 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 345 tasi (7,0 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 25 480,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,5 % ni tashkil etdi.

| | Hajmi, mlrd so'm | Fizik hajm indeksi, % da |
|---------------------------|---------------------|-----------------------------|
| Samarqand viloyati | 25 480,0 | 109,5 |
| Samarqand sh | 9 395,7 | 115,2 |
| Kattaqo'rg'on sh | 682,3 | 118,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqdaryo | 559,4 | 112,7 |
| Bulung'ur | 419,4 | 113,9 |
| Jomboy | 2 426,3 | 114,6 |
| Ishtixon | 664,4 | 107,8 |
| Kattaqo'rg'on | 1 268,7 | 112,1 |
| Qo'shrabot | 184,6 | 120,8 |
| Narpay | 586,8 | 110,1 |
| Payariq | 368,1 | 119,6 |
| Pastdarg'om | 923,6 | 109,6 |
| Paxtachi | 366,2 | 109,0 |
| Samarqand | 1 252,8 | 109,1 |
| Nurobod | 372,4 | 116,9 |
| Urgut | 1 728,3 | 108,1 |
| Toyloq | 1 508,7 | 109,5 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (15 487,1 ming so'm), Jomboy tumanida (12 206,3 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahrida (7 024,0 ming so'm), Toyloq tumanida (6 512,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 806,4 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Qo'shrabot tumanida (118,8 %)

Kattaqo'rg'on shahrida (116,9 %), Payariq tumanida (117,4 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 24 253,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,2 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 292,7 mlrd so'm (1,1 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 738,0 mlrd so'm (2,9 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 196,3 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-may oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 212 626,4 tonna chaqiq tosh (2025-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 97,5 % ga ko'paygan), 12 612,7 tonna ip kalava (17,6 % ga kamaygan), 6 919,0 ming litr pivo mahsulotlari (5,1 % ga kamaygan) hamda 13 679,2 ming metr kvadrat gilam va gilam mahsulotlari (12,7 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-may* | 2025-yil yanvar-may* | 2026-yil yanvar-may |
|--|----------------------|----------------------|---------------------|
| Avtobus, dona | 298 | 163 | 195 |
| Yuk avtomobillari, dona | 1216 | 1 472 | 2 046 |
| Portlandsement, ming tonna | 995,0 | 1 023,7 | 1 347,6 |
| Konyak spirti, ming litr | 55,0 | 34,3 | 29,3 |
| Paxta tolasi, ming tonna | 26,5 | 18,4 | 23,6 |
| Gilam va gilam mahsulotlari, ming m. kv. | 11 227,4 | 12 136,9 | 13 679,2 |

| | | | |
|--|----------|----------|----------|
| O'simlik yog'i (tozalangan),tonna | 19 980,0 | 31 038,0 | 30 046,0 |
| Kunjara va qattiq chiqindilar, ming tonna | 36,9 | 55,0 | 51,5 |

**2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,5 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,4 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,9 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2025-yilning yanvar-may oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 12,1 % (12,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,6 % (21,6 %), quyi texnologiyali 60,9 % (61,0 %)ni tashkil etgan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 82,5 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-may* | 2025-yil yanvar-may* | 2026-yil yanvar-may |
|--|-----------------------------|-----------------------------|----------------------------|
| Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kv.t.s. | 73,1 | 93,7 | 77,3 |
| <i>shundan:</i> | | | |
| <i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i> | 73,1 | 93,7 | 77,3 |
| <i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i> | - | - | - |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | - | - | - |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 40,9 % ga ko'payish, Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlarda 48,1 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, plastmassa chiqindilari yig'ish bo'yicha xizmatlarda 4,3 % ga ko'payish kuzatildi.


| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-may* | 2025-yil yanvar-may* | 2026-yil yanvar-may |
|--|-----------------------------|-----------------------------|----------------------------|
| Suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm | 51 301,3 | 62 364,2 | 87 864,4 |
| Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlar, mln so'm | 26 362,6 | 31 201,1 | 46 206,8 |

| | | | |
|---|----------|----------|----------|
| Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari, mln so'm | 24 677,3 | 31 423,3 | 48 771,1 |
| Plastmassa chiqindilari, tonna | 1 402,4 | 1 451,2 | 1 514,0 |

*2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11 372,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a)



sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
T. Alimov
66 235-06-80 (3012)

Manzil:
Samarqand sh
U.Tursunov-82 uy
